

BADIY SAN'ATLAR NAFOSATI (ALISHER NAVOIY ASARLARI MISOLIDA)

Suxanberdiyeva Sitora Sanjar qizi  
*Nizomiy nomidagi TDPU talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Alisher Navoiy “Lisonut-tayr”, “Saddi Iskandariy” dostoni tilida qo’llanilgan badiiy sana’tlardan: intoq, tajnis va uning tajnisi zoyid, tajnisi muzori’, tajnisi aks kabi turlari xususida so‘z yuritilgan. Nazariy ma’lumotlar dostonidan keltirilgan misollar bilan asoslangan.

**Kalit so‘zlar:** Alisher Navoiy, “Lisonut-tayr”, “Saddi Iskandariy”, badiiy sana’tlar, intoq, tajnis, tajnisi zoyid, tajnisi muzori’, tajnisi aks.

“Adabiyot-fikr, tuyg‘ularimizdagi to‘lqinlarni so‘zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu to‘lqinlarni yaratmoqdir. Bu ta’rif adabiyotning to‘g‘ri ta’rifidir. Shu bilan yozilgan asarlarga adabiy asar deyiladur<sup>1</sup>”.

Fitrat

Ma’lumki, she’riy san’atlar badiiy asardan o’rin olgan g‘oyalarning hayotiyroq, ta’sirchanroq ifodalanishiga, lirk va epik timsollarning yorqinroq gavdalantirilishiga, misralar, baytlar, bandlarning lafziy nazokati, musiqiyligi, jozibadorligini ta’minlashga xizmat qilgan<sup>2</sup>.

Intoq san’ati. “So‘zlatish”, “gapirtirish” ma’nosidagi intoq san’ati badiiy asarda hayvonlar yoki jonsiz narsalarni odamlarga o‘xshatib so‘zlatishni nazarda tutadi. Jumladan, Alisher Navoiyning Lisonut tayr” dostonida qushlar odamlar kabi so‘zlatilgan. Masalan: To’ti:

“Qushedurmen, makonim garmser,  
Hind aqosida qilg‘on sayri tayr.  
El aro shuhrat fasohatdin tutub,  
Nukta birla g‘amlig‘ elni ovutib.  
Komronlar manzilim aylar aylab qafas,  
Har malolat yetsa aylab hamnafas.  
desa, Hudhud:  
Faxr etarsen nutq birla ko‘zguga,  
Kim erur nutqung, munosib kulguga,  
Ko‘zgu lavhi zamiringga jilo,  
Bergosen ul bo‘lg‘ayki tortib yuz balo,  
Buki har hindu qoshingda shohdur,  
Der bu so‘zni hashv kim ogohdir<sup>3</sup>  
deydi.

<sup>1</sup> <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/hikmatlar/yozuvchilar-adabiyot-to-g-risida>

<sup>2</sup> Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati.-T.,1999.-B.231.-B.4.

<sup>3</sup> Alisher Navoiy. “Lisonut-tayr”. -Toshkent, 1991. -B.49.

Tajnis (yoki jinos) she'r baytida ma'no jihatidan har xil, ammo shakli bir xil yoki shaklan bir-biriga yaqin ikki so'zni keltirib, ular vositasida muayyan fikr, lavha yoki timsolni ta'sirchan ifodalash san'ati hisoblanadi<sup>4</sup>. Biz quyida tajnis san'atining bir qator turlari haqida to'xtalib o'tamiz.

Tajnisi zoyid “orttirilgan tajnis” ma'nosini bildiradi. Bu xil tajnislarda shaklan o'zaro yaqin so'zlarning birida bir-ikki harf ortiqcha bo'ladi, shu harflar tushirib qoldirilsa, so'zning qolgan qismi ikkinchi so'zga har jihatdan mos tushib tajnisi tomm hosil qilishi mumkin. Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidagi

*Manga berdi xud hayyi dono murod,*

*Ajal aylagan chog' vale nomurod*

baytidagi “*murod*” va “*nomurod*” so'zlari tajnisi zoyidni yuzaga keltirgan. “*Nomurod*” so'zi boshida *nun* (“n” undoshi) va *alif* (“o” unlisi) ortiqchaligi ko'rinish turibdi, ular tushirilsa, har ikkala so'z shakldoshlik kasb etadi: نامزاد (نامزاد) (مداد) va (مداد) (مداد) kabi.

Tajnisi zoyidlarda bir so'zdagi ortiqcha harf yoki ikki harf so'z boshida, o'rtasida yoxud oxirida kelishi mumkin. Yuqoridagi misolda ikki ortiqcha harf so'z boshida kelgan. Mana shu dostondan keltirilgan

*Bugundin ikki-uch yil o'tsa zamon,*

*Yuz nursa bu kishvarga amnu amon,*

*Debonkim: Skandar yiborgan bitik,*

*Ki sammdin achig'dur, qilichdin itik.*

baytlarda esa, “*zamon*” so'zida “*amon*” so'ziga nisbatan “z” “j” undoshi, “*bitik*” so'zida esa “*itik*” so'ziga nisbatan “b” “پ” undoshi ortiqcha sanaladi. Har ikkala baytda ham tajnisi zoyid hosil qilgan.

Tajnisi zoyid tashkil etgan so'zlardan biridagi ikkinchisiga nisbatan ortiqcha harf so'z o'rtasida ham kelishi mumkin, bu holda ham o'sha harf tushirilsa, ikkinchi so'z bilan tajnisi tomm hosul bo'ladi. Masalan:

*Uni buzg'ay ul sehr asbobini,*

*O'ti ochqay ul qal'aning bobini*

baytidagi *asbobini* so'zi o'rtasida *bobini* so'ziga nisbatan ortiqcha, *alif* (!) unlisi va *sin* (س) undoshi kelgan, uni tushirilsa, ikki so'z to'la shakldosh bo'lib qoladi.

Tajnisi muzori'. Tajnisning bu turi qo'lllanganda shaklan yaqin bo'lgan ikki so'z boshi, o'rtasi yoki oxiridagi bir, ba'zan ikki harf bir-biridan farqlanib, qolgan qismi mos bo'ladi. Ushbu

*Chu rokib bo'lub qal'aga qildi mayl*

*Ulus dag'i yuzlandi andoqli sayl*

Baytdagi qofiyadosh so'zlarga e'tibor qaratsak, ularning shaklan yaqinligi, faqat birinchi harflardagina farq qilishini ko'ramiz. Yana

*Chu dorug'a o't yeti, tutti havo,*

*Qilurg'a ulus mehnatiga davo.*

<sup>4</sup> Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati.-T.,1999.-B.231.-B.65.

Borib tushti a'do arosig'a *chust*,  
Azim un chiqordi tegib yerga *rust*.  
Sado botil etti fusunlarni *pok*,  
O'ti kuydurib qal'ani qildi *xok*.  
Hamul damki otturdi qo'rg'onga *go'y*,  
Ki darband qildi yiqilmoqqa *ro'y*

kabi baytlardagi qofiyadosh so'zlar ham birinchi harfning o'zgachaligi bilangina farqlanadilar. Bu xil so'zlarni qo'llash tajnisi muzori' san'ati hisoblanadi.

Tajnisi muzori' san'ati so'zlardagi bir harfning so'z o'rtasida farqlanishini ham nazarda tutadi. Masalan:

*Hamul ravzada bo'ldi shah manzili*,  
*Tushub shahr ichinda sipah mahmili*.  
*Yozib jom davrida ta'rifini*,  
*Qilur chog'da ul jom tasnifini*.  
*Chu getinamo asru mashhurerur*,  
*Muni vasf etay ulcha maqdurerur*.  
*Ki har qaysig'a kimki tadqiqetar*,  
*Musavvir kamolini tahqiq etar*

kabi baytlardagi qofiyadosh so'zlar o'rtadagi bir harfning boshqachaligi bilangina farqlanadi. Shaklan yaqin bo'lgan bu so'zlarning baytlarda qo'llanishi ham tajnisi muzori'ni hosil qiladi.

Ba'zida so'zlar boshi yoki o'rtasidagi ikkita harf bir-biridan farqlanganda ham tajnisi muzori'i yuzaga keladi:

*Safar ichra har ishta ahli reshod*,  
*Bu yanglig' kushod uzra topib kushod*.

misralardagi qofiyadosh “reshod” va “kushod” so'zlari avvalgi ikki harfning o'zgachaligi bilan farqlanadi. Shunga qaramay ular o'zaro yaqin bo'lganligi tufayli tajnisi muzori'i hosil qiladi. Quyidagi

*Ko'ruldi sifotingki masturemas*,  
*Kim ul naf' insong'a maqduremas*.  
*Yeshilmas edi noqadin mahmili*,  
*Har o'n kunda bir shahr edi manzili*

baytlarda esa qofiyadosh “mastur” va “maqdur”, “mahmili” va “manzili” so'zlari o'rtadagi ikki harfning o'zgachaligi bilan farqlanishiga qaramay, tajnisi muzori'ni hosil qilgan. Ikki harfi farq qiladigan so'zlardan tashkil topgan shakldoshlikni tajnisi mutarrad deb ham ataydilar.

Tajnisi aks “teskari tajnis” ma'nosini anglatadi. Bir baytda ikki shakldosh so'zning birini yoki uning bir qismini teskari qilib keltirishga asoslanadi. Ushbu san'at ikki so'zdan birini butunlay emas, balki bir qismini teskari qilishni ham nazarda tutadi. Aniqroq qilib aytganda ikki so'zning bir qismi bir-biriga nisbatan teskari bo'ladi.

Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidan olingan  
*Xurosonda bor erdi ikki rafiq,*  
*Bo'lub rifqila bir-biriga shafiq*  
misralarida “*rafiq*”, “*rifq*” so‘zlaridan;  
yana quyidagi  
*Yana tuhfalar burnog‘idin shigarf,*  
*Ki vasfig‘a qilmay vafo saftu harf<sup>5</sup>.*  
misralarda esa “*vasfig‘a*”, “*saftu*” so‘zlaridan tajnisi aks sifatida foydalanilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, kitobxon mumtoz she’riyatimizning bezavol obidalarini, jumladan, Alisher Navoiy asarlarining tub mohiyatini tushunishi, uning badiiy salohiyatidan bahramand bo‘lishi uchun biz yuqorida to‘xtalib o‘tgan ijodkorlar tomonidan qo‘llangan badiiy sa’natlardan xabardor bo‘lishi, ularning asl mohiyatini qalban his etishi, lozimdir. Zero, ushbu san’atlar badiiy so‘zning buyuk quadratini his etish, tilimizning beqiyos boyligi va go‘zalligini teranroq anglab, vatanparvarlik, insonparvarlik, elsevarlik tuyg‘ularini tarbiyalash vazifasini ham bajargan<sup>6</sup>.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. -T., 1991.
2. Alisher Navoiy. “Lisonut-tayr”. -T., 1991.
3. Amonov U. Adabiyot nazariyasi. -Buxoro, 2008.
4. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. -T., 1999.
5. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/hikmatlar/yozuvchilar-adabiyot-to-g-risida>.
6. A’ZAMXONOV S.X. TA’LIM JARAYONIDA O’QITUVCHI FAOLIYATINING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI | O’ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSİYALAR VA İLMIY TADQIQOTLAR JURNALI  
<https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/1313>

<sup>5</sup> Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. -T., 1991. -B.270.

<sup>6</sup> Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati.-T.,1999.-B.231. -B.8.